



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-dekabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 900 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 878 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 22 636,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 400,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 21 235,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 248,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %) tashkil etdi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|-------------------------|---------------------|--|
| Andijon Viloyati | 22 636,3 | 107,8 |
| Andijon sh. | 6 300,7 | 109,0 |
| Xonobod sh. | 235,3 | 107,7 |
| <i>tumanlar</i> | | |
| Oltinko'l | 924,0 | 106,1 |
| Andijon | 1 442,0 | 106,0 |
| Baliqchi | 1 458,4 | 106,1 |
| Bo'ston | 329,7 | 107,5 |
| Buloqboshi | 705,1 | 105,2 |
| Jalaquduq | 734,9 | 110,7 |
| Izboskan | 784,0 | 107,9 |
| Ulug'nor | 306,7 | 106,2 |
| Qo'rg'ontep'a | 1 556,2 | 115,1 |
| Asaka | 1 977,2 | 106,1 |
| Marhamat | 1 018,5 | 107,4 |
| Shahrixon | 2 975,8 | 106,7 |
| Paxtaobod | 1 028,1 | 106,5 |
| Xo'jaobod | 859,7 | 104,8 |


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (9,0 %), Izboskan (7,9 %), Jalaquduq (10,7 %) va Qo'rg'ontep'a (15,1 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)



So'nggi 5 yillikda (2019-2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

2023- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida o'sish sur'ati **107,8 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4

Ulushi, foizda




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 27,8 % bilan 6 300,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 1,0 % bilan 235,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 21 235,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,7 % ga oshdi. Tuman miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,4 % ga o'sdi va 1 400,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining 6,2 % ulushiga to'g'ri keldi.




| | |
|-------|---------------|
| 106,9 | Shahrixon |
| 107,5 | Izboskan |
| 107,6 | Bo'ston |
| 107,8 | Marhamat |
| 108,4 | Andijon sh. |
| 108,6 | Andijon |
| 110,3 | Jalaquduq |
| 115,9 | Qo'rg'ontep'a |

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

| | |
|-------|-------------|
| 96,0 | Asaka |
| 106,9 | Bo'ston |
| 112,8 | Andijon sh. |
| 117,6 | Jalaquduq |
| 137,0 | Izboskan |
| 145,7 | Baliqchi |
| 152,8 | Xonobod sh. |
| 3,2 b | Oltinko'l |

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,2 %), Qo'rg'ontep'a (99,2 %), Shahrixon (99,0 %) va Buloqboshi (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (14,8 %), Andijon (7,2 %), Bo'ston (6,1 %) va Oltinko'l (5,5 %) tumanlarida kuzatildi.

6,2 %



93,8 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



| | | | |
|---------------|-----------------|-----------|----------------|
| Andijon sh. | 13 281,5 | Marhamat | 5 523,1 |
| Xonobod sh. | 5 183,6 | Shahrixon | 9 276,3 |
| Oltinko'l | 4 847,8 | Paxtaobod | 4 978,5 |
| Andijon | 5 093,7 | Xo'jaobod | 7 248,6 |
| Baliqchi | 6 827,7 | | |
| Bo'ston | 4 281,8 | | |
| Buloqboshi | 4 654,1 | | |
| Jalaquduq | 3 730,6 | | |
| Izboskan | 3 101,1 | | |
| Ulug'nor | 4 837,1 | | |
| Qo'rg'ontep'a | 6 819,5 | | |
| Asaka | 5 629,8 | | |

2023- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga o'rтacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 740,0 ming. so'm (2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 105,5 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (13 281,5 ming so'm), Shahrixon (9 276,3 ming so'm) va Xo'jaobod (7 248,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|------------------------|--|
| Andijon viloyati | 3 248,1 | 108,0 |
| Andijon sh. | 749,9 | 138,4 |
| Xonobod sh. | 7,7 | 69,3 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 49,4 | 98,2 |
| Andijon | 86,9 | 96,4 |
| Baliqchi | 190,1 | 90,6 |
| Bo'ston | 26,6 | 130,6 |
| Buloqboshi | 106,2 | 93,7 |
| Jalaquduq | 101,0 | 154,9 |
| Izboskan | 43,6 | 165,2 |
| Ulug'nor | 102,5 | 88,4 |
| Qo'rg'ontep'a | 220,0 | 362,0 |
| Asaka | 337,0 | 103,2 |
| Marhamat | 176,4 | 100,0 |
| Shahixon | 655,3 | 90,8 |
| Paxtaobod | 269,4 | 81,8 |
| Xo'jaobod | 126,1 | 85,7 |


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 248,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 411,0 mlrd. so'mni (129,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 837,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (107,9 %).


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi 1 411,0 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (492,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 837,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosи 1 556,5 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 253,5 mlrd. so'mni, otlar – 14,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 12,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 173 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 172 tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|--------------------|--|
| Andijon viloyati | 427,2 | 112,7 |
| Andijon sh. | 184,0 | 112,1 |
| Xonobod sh. | 5,4 | 113,9 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 21,5 | 113,9 |
| Andijon | 33,9 | 113,1 |
| Baliqchi | 8,6 | 113,7 |
| Bo'ston | 10,8 | 114,8 |
| Buloqboshi | 3,7 | 111,8 |
| Jalaquduq | 8,6 | 110,4 |
| Izboskan | 12,2 | 111,0 |
| Ulug'nor | 4,8 | 112,3 |
| Qo'rg'ontep'a | 19,5 | 112,5 |
| Asaka | 18,9 | 111,8 |
| Marhamat | 13,2 | 111,3 |
| Shahrixon | 57,1 | 114,3 |
| Paxtaobod | 14,8 | 113,6 |
| Xo'jaobod | 10,3 | 111,7 |

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 427,2 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|-------------------------|----------------------|-------------------|
| Andijon viloyati | 3 920,0 | 132,8 |
| Andijon sh. | 2 674,3 | 136,2 |
| Xonobod sh. | 0,3 | 104,2 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 166,3 | 124,1 |
| Andijon | 153,5 | 124,8 |
| Baliqchi | 4,3 | 117,4 |
| Bo'ston | 0,4 | 109,8 |
| Buloqboshi | 0,8 | 103,6 |
| Jalaquduq | 4,3 | 119,8 |
| Izboskan | 1,8 | 112,8 |
| Ulug'nor | 0,3 | 107,9 |
| Qo'rg'ontep'a | 48,8 | 123,9 |
| Asaka | 454,6 | 154,3 |
| Marhamat | 15,8 | 123,3 |
| Shahrixon | 14,9 | 119,3 |
| Paxtaobod | 3,1 | 117,2 |
| Xo'jaobod | 376,4 | 105,2 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (2 674,3 mlrd. so'm), Asaka (454,6 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (376,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 920,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,8 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 933,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 150,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1 986,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 119,2 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 630,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

6,9 %

526 ,3 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

93,1 %

7 103,9 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 7 103,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 2 817 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 795 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinko'l (95,0 m.), Jalaquduq (52,4 m.) va Andijon (3,5 m.) tumanlarida kuzatildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-------------------------|--------------------|--|
| Andijon viloyati | 7 630,3 | 109,6 |
| Andijon sh. | 2 721,9 | 109,1 |
| Xonobod sh. | 36,0 | 107,4 |
| <i>tumanlar :</i> | | |
| Oltinko'l | 401,8 | 115,8 |
| Andijon | 841,2 | 131,4 |
| Baliqchi | 515,5 | 107,5 |
| Bo'ston | 190,7 | 106,9 |
| Buloqboshi | 165,8 | 106,9 |
| Jalaquduq | 84,0 | 114,2 |
| Izboskan | 145,7 | 107,3 |
| Ulug'nor | 82,7 | 108,6 |
| Qo'rg'ontep'a | 198,9 | 105,9 |
| Asaka | 243,9 | 109,1 |
| Marhamat | 130,2 | 99,7 |
| Shahrixon | 1 634,0 | 102,1 |
| Paxtaobod | 135,3 | 108,0 |
| Xo'jaobod | 102,8 | 131,3 |